

GEMODIALIZ

*Beshariq Abu Ali ibn Sino Nomidagi
Jamoat salomatligi Texnikumi o'qituvchisi
Xoshimova Durdona Fazliddin qizi*

Annotatsiya. *Mazkur maqolada hozirgi vaqtda ko'plab insonlar orasida uchraydigan buyrak kasalliklarida qo'llanilayotgan tibbiy amaliyot-gemodializ haqida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Gemodializ, toksik moddalar, havo emboliyasi, gipotenziya, gipertenziya*

Dolzarbliqi: Gemodializ apparatidan buyrak kasalligi bilan aziyat chekayotgan insonlar orasida tibbiyotda keng qo'llanilib kelayotganligi, yildan yilga bu tibbiy muolajaga ehtiyoj ortib borayotganligi hozirgi kunning dolzarbligini anglatadi.

Gemodializ tushunchasi.

Gemodializ-buyrak yetishmovchiligi bilan aziyat chekayotgan xasta insonlar uchun buyrak vazifasini bajaruvchi davo muolajasi bo'lib, bemorning uzoq vaqt umr ko'rishiga yordam beradigan amaliyotdir. Bunda qon toksik moddalardan tozalanadi. Sog'lom buyraklar qon tarkibini filtrlab, chiqindilarni siydik orqali chiqaradi. Ammo buyraklar o'z funksiyasini bajara olmaganda, organizmda zaharli moddalar to'planadi. Gemodializ aynan shu vazifani vaqtincha bajaradi — ya'ni qon maxsus apparat orqali o'tkazilib, tozalanadi va yana organizmga qaytariladi.

Gemodializ odatda quyidagi holatlarda tavsiya etiladi:

Surunkali buyrak yetishmovchiligi

O'tkir buyrak faoliyati buzilishi

Qonda zaharli moddalar darajasi keskin oshganda

Ortiqcha suyuqlik organizmdan chiqmay qolganda.

Gemodializ uchun ishlatiladigan maxsus materiallar xorijdan keltiriladi va bularning barchasi bemorlarga davlatimiz tomonidan bepul tarqatiladi.

Gemodializ maxsus markazlarda amalga oshiriladi. Bemorning qon tomiriga igna yoki kateter orqali ulanish amalga oshiriladi. Qon apparatga o'tadi, u yerda filtrlanadi va tozalangan holda yana bemorga qaytariladi. Odatda bir seans 3–5 soat davom etadi va haftasiga 2–3 marta o'tkaziladi.

Gemodializ apparati 3 asosiy qismdan iborat:

1. Qon aylanish tizimi-qonni tanadan olib apparatga uzatadi

2. Dializator-maxsus membrane orqali qonni tozalaydi.

3. Dializat eritmasi-zaharli moddalarni chiqarishga yordam beruvchi suyuqlik.

Afzalliklari

Hayotni saqlab qoladi va uzaytiradi

Organizmni zaharli moddalardan tozalaydi

Suv va tuz muvozanatini tiklaydi

Kamchiliklari

Doimiy ravishda shifoxonaga borishni talab qiladi

Vaqt talab etadi

Ba'zi nojo'ya ta'sirlar (charchoq, qon bosimi pasayishi) kuzatilishi mumkin.

Gemodializ asoratlari

Havo emboliyasi-uslub potentsial o'limga olib keladigan asorat faqat tizimning ishlamay qolishi bilan bog'liq, dializ monitoring yoki unga e'tibor bermaslikda yuzaga keladi.

Qaltirash-(pirogen reaksiya) – uslub asorat bilan bir narsa aniq: gemodializ paytida titroq holatlar tibbiyot xodimlarining 100% aybi. Bemorda yuqumli jarayon bo'lsa ham gemodializ paytida titroq

bo'lmasligi kerak.

Tromboz-ekstrakorporeal trombozda har doim tibbiyot xodimlari aybi tufayli yuzaga keladi.

Gipotenziya-hozirgi davrda gemodializning asosiy asoratlardan berib kelmoqda. Afsuski, gemodializ bilan og'rig'an bemorlar ko'pincha past A\B ga ko'nikishlari qiyin bo'ladi.

Gipertenziya-qon bosimining 140/90 mm sim ust dan yuqori darajaga ko'tarilishiga aytiladi. Gipertenziya gemodializda eng ko'p uchraydigan asoratlardan biri hisoblanadi.

O'ta yuqori darajali degidratatsiya-haddan tashqari suvsizlanish texnik sabablarga ko'ra sodir bo'lishi mumkin, agar gemodializ monitorlari ultrafiltratsiyani volumetrik nazorati

bo'lmasa yoki mavjud ultrafiltratsiyani boshqarish tizimini muvozanatda bo'lmasa yuzaga kelishi munksin.

Mushaklar talvasasi-mushak talvasasi to'satdan, beixtiyor, og'riqli mushak yoki mushaklarning qisqarishidir. Klinik jihatdan qisqargan mushaklarni paypaslash munksin.

Oshqozon - ichakdan qon ketishi. Dializ bilan og'rig'an bemorlarda oshqozon-ichakdan qon ketishining sabablari: Gastrit, duodenit, oshqozon yarasi, ezofagit, qizilo'ngach varikoz tomirlari, Mallori-Vays sindromi.

“Quruq og'iz” (kserostomiya) sidromi – ko'pincha dializ bilan og'rig'an bemorlarda kuzatiladi. “Quruq og'iz” holatlari so'lak ishlab chiqarishiga ta'sir qiluvchi dorilarni buyurish bilan bog'liqdir. Bular: simpatolitiklar, analgetiklar, antigistaminlar, talvasaga qarshi preparatlar.

Gemodializdan keyingi charchoq sindromi – uslub sindrom haqida Fransiyalik gemodializ mutaxassisi doktor G. Loran aytib o'tgan. Uning fikriga ko'ra, 4 soatlik qisqa gemodializ yuqori qon perfuziyasi va ultrafiltratsiya tezligi 4-soatiga bemor butunlay charchashiga olib keladi.

Qichishish – afsuski, dializ izlanishlarida qichishishni davolashda jiddiy muvaffaqiyat yo'q, shuning uchun uning sabablari har doim ham aniq emas.

Qichishishning asosiy sabablari: Gemodializatorga reaksiya (yuqori sezuvchanlik reaksiyasi yoki anafilaktoid), polinevropatiya, giperfosfatemiya, giperparatiroidizm, geparin yoki boshqa dorilarga allergiya, surunkali gepatit.

Gemodializ muolajasini olayotgan vaqtda bemorlarga odatda tuz iste'molini cheklash, suyuqlik miqdorini nazorat qilish, oqsil va minerallar bo'yicha tavsiya etilgan parhezga amal qilish, dori vositalarini shifokor nazoratida qabul qilish tavsiya etiladi.

Dializ bo'lim faoliyatini tashkil qilish tartibi.

1. Gemodializ bo'limi davolash profilaktika muassasasining tarkibiy bo'linmasi yoki alohida yuridik maqomga ega bo'lgan shifoxona yoki markaz hisoblanadi.
2. Bo'limni gemodializ bo'yicha birlamchi ixtisoslashtirilgan kursni bitirgan nefrolog, reanimatolog, toksikolog, urolog, endokrinolog, xirurg, pediatr, yuqori malakali hamshira va 5 yil ish stajiga ega bo'lgan shifokorlar bo'lim mudiri lavozimiga ega bo'lishi mumkin.
3. Bo'lim faoliyati gemodializ o'rinlaridan kelib chiqqan holda haftasiga 12 soatdan rejalashtiriladi.
4. Bo'limning tavsiya etiladigan tarkibiy tuzilmasi.

XULOSA

Gemodializ – "sun'iy buyrak" apparati hisoblanadi. Gemodializ — buyrak yetishmovchiligi bilan yashayotgan bemorlar uchun muhim va zarur davolash usuli hisoblanadi. U to'liq davolash bo'lmasa-da, bemorning hayot sifatini yaxshilash va umrini uzaytirishda katta ahamiyatga ega. Zamonaviy tibbiyotda gemodializ bilan bir qatorda buyrak transplantatsiyasi ham muqobil yechim sifatida qaraladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Samadova Z.A "Nefrologik kasalliklar va gemodializda hamshiralik parvarishi"
2. O'quv qo'llanma "Nefrologik kasalliklar"